

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025  
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCESS

ULRICH'S WEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU  
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
1931



SIMON KARIMOV NOMIDASI  
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI  
1955

TOŠKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI  
1955

TJU  
TOSHKENT DAVLAT  
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA  
UNIVERSITETI  
1991

TJU  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA  
UNIVERSITETI  
1991



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabeck Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan .....	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market .....	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari .....	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston .....	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli .....	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития .....	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration .....	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli .....	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida .....	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing .....	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties .....	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish .....	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari .....	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari .....	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi .....	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....	115
<b>Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida .....	118
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b>	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari .....	125
<b>Yaqubova Nodira Olim qizi</b>	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari .....	130
<b>Nosirova Charos</b>	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni .....	135
<b>Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri .....	142
<b>Berdibekov A.</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari .....	148
<b>Axmedova Barno Abdiyevna</b>	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi .....	151
<b>Yaqubov Azizbek G'anibekovich</b>	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari .....	156
<b>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</b>	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari .....	163
<b>O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi</b>	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi .....	169
<b>Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich</b>	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari ....	174
<b>S.J. Yangiboev</b>	

# MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



# HUDUDLAR IQTISODIYOTI AGRAR SEKTORI INVESTITSION FAOLLIGINING KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

**S.J. Yangiboev**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni hamda uni rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bayon etilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga ajratilayotgan investitsiyalar hajmi va agrar sektorning investitsion salohiyatidan foydalanish holati atroficha tahlil qilingan. Maqolada agrar sohaga investitsiyalarni jalb etishning istiqbolli yo'naliishlariga oid ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** modernizatsiyalash, investitsiya, uzoq muddatga mo'ljallangan strategiya, investitsiya dasturlari, yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti, ekonometrik model, rentabellik.

**Abstract:** The article examines the role of agriculture in the national economy of the Republic of Uzbekistan and the socio-economic outcomes of reforms aimed at its development. It also analyzes the volume of investments allocated to the agricultural sector and the current state of utilization of its investment potential. Scientifically grounded proposals and practical recommendations are provided regarding promising directions for attracting investments to the agrarian sector.

**Keywords:** modernization, investment, long-term strategy, investment programs, gross agricultural output, econometric model, profitability.

**Аннотация:** В статье рассматриваются роль сельского хозяйства в национальной экономике Республики Узбекистан и социально-экономические результаты проводимых реформ, направленных на его развитие. Также исследованы объемы инвестиций, выделяемых на сельское хозяйство, и текущее состояние использования инвестиционного потенциала аграрного сектора. Представлены научно обоснованные предложения и практические рекомендации по перспективным направлениям привлечения инвестиций в аграрную сферу.

**Ключевые слова:** модернизация, инвестиции, долгосрочная стратегия, инвестиционные программы, валовая продукция сельского хозяйства, эконометрическая модель, рентабельность.

## KIRISH

Bugungi rivojlanayotgan dunyoda agrar sektoriga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu bois, agrar sohada hududiy investitsiya siyosatini samarali amalga oshirishda investitsiya manbalarini to'g'ri tanlash, zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratish, investitsiya siyosatini izchil tarzda ro'yobga chiqarish hamda investitsiyalarni jalb qilish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarini aniqlash, investorlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlarda investitsion faoliyatni samarali boshqarish darajasini baholash, ishlab chiqilgan hududiy investitsiya siyosatini samarali realizatsiya qilishning institutsional asosini tashkil etadi. Bunday boshqaruv tizimi, bir tomonidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan investitsion menejmentni samarali tashkil etish orqali hududlarning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, investitsiyalarni boshqarish sohasida eng yangi yutuqlarni o'rganish hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish davlat organlari faoliyati uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.



Investitsiyalar nazariyasida davlat va hududiy darajadagi investitsion faoliyatni tartibga solishning samaradorligi va zarurligiga oid bir qator ilmiy ishlasmalar tizimlashtirilgan. Biroq, O'zbekiston iqtisodiyotida kuza-tilayotgan zamonaviy transformatsion jarayonlar sharoitida hududiy investitsiya siyosatini iqtisodiy o'sishning istiqbolli yo'nalishlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosida shakllantirish dolzARB masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, ushbu siyosatni baholash va tahlil qilish uchun samarali ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatga aylangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Bu borada qator iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlarini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, hududiy investitsion faoliyatni boshqarishning funksional elementlari, uning instrumentlari hamda investitsiyalarni boshqarish bo'yicha sifat ko'rsatkichlari O.B. Ugurchiyev va D.O. Ugurchiyevlarning [1] ilmiy ishlarida tizimli ravishda tahlil qilingan.

Hududiy boshqaruvin tizimining samaradorlik ko'rsatkichlari bilan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga doir asosiy ko'rsatkichlar o'tasidagi o'zaro bog'liqlik Ye.A. Petrova, V.V. Kalinina va A.V. Shevandrin [2] larning ilmiy tadqiqotlarida hududiy va shahar darajasida modellashgan holda bayon etilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solish, shuningdek iqtisodiyotning turli tarmoqlarida investitsion siyosatni samarali amalga oshirish borasida A.Sh. Bekmurodov [3], Sh.I. Mustafaqulov [4], S.A. Abdurahimova [5], B.B. Valiev [6] kabi yetuk iqtisodchi olimlar muhim ilmiy-amaliy hissa qo'shganlar. Ushbu mutaxassislar tomonidan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'siri, investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash, erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish hamda investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida moliyaviy hisobot va uning tahlilini takomillashtirishga doir yo'nalishlar chuqur yoritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining moliyaviy-iqtisodiy asosini tizimli ravishda olib borilishi zarur bo'lgan hududiy investitsion siyosat tashkil etadi. Hududiy investitsion siyosatning strategik maqsadlarini to'g'ri belgilash, ushbu maqsadlarni samarali realizatsiya qilishga yo'naltirilgan aniq vazifalar algoritmini ishlab chiqish hamda optimal investitsion menejment tizimini shakllantirish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini to'g'ri tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hududiy investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligi hududiy investitsion siyosatni muvaffaqiyatlama amalga oshirishning muhim institutsional asosi sifatida namoyon bo'lsa-da, ushbu boshqaruvin samaradorligining asosiy determinantlari investitsiyalarning turli mezonlar bo'yicha iqtisodiy samaradorligi orqali baholanadi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalar samaradorligi — ma'lum loyihalarni amalga oshirish natijasida olinadigan aniq qiymat ekvivalentlari yoki jamiyat uchun kuzatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy foydalilik darajasi bilan belgilanadi.

Shuningdek, investitsiyalar samaradorligini baholashda nafaqat konkret loyihalarning iqtisodiy samarasini, balki hududiy investitsion faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy determinantlarni iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar asosida turkumlash mumkin. Masalan, hududiy investitsion faoliyat samaradorligi o'rta muddatli istiqbolda yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmining barqaror o'sishi orqali, ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM ulushining ortishi orqali ifodalanadi.



## Hududiy investitsion faoliyat samaradorligi



### 1-rasm: Investitsion faoliyat samaradorligi tasnifi<sup>1</sup>

Davlat investitsiyalarini boshqarish tizimi — boshqaruv usullari va vositalardan foydalilanigan holda, hududiy investitsiya faoliyati ishtirokchilari bilan o'zaro aloqadorlik asosida shakllanadi.

Hududiy investitsiyalar tizimi esa mintqaq iqtisodiyotining real sektoriga xizmat qiladi hamda ushbu sektorni o'z resurslari yoki tashqi resurslar hisobiga to'ldiradi. Bu esa, o'z navbatida, hududiy investitsion faoliyatning muhim elementi bo'lgan konkret investitsion loyihalar samaradorligini baholash orqali investitsiyalarning

<sup>1</sup> Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



hududiy rivojlanishga ta'sirini aniqlovchi samaradorlik baholash tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida tanlab olingen investitsion loyihalarni baholashda qo'llaniladigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, 1-jadvalda ushbu ko'rsatkichlarning eng muhimlari tizimlashtirilgan.

### 1-jadval: Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash ko'rsatkichla<sup>2</sup>

Mezonlar	Formula	Mezonlar
Dinamik samaradorlik ko'rsatkichlari		
Sof joriy qiymat (NPV)		
Boshlang'ich yilgacha kamaytirilgan ajralmas xarajatlardan integral natijalarning oshishi yoki butun hisob-kitob davri uchun joriy ta'sirlar yig'indisi sifatida	$NPV = \sum_{t=0}^T (R_t - Z_t) \cdot \frac{1}{(1 + Y_e)^{t-}} = \sum_{t=0}^T \frac{E_t}{(1 - E)^t}$ bu erda $R_t$ -t-chi hisoblash bosqichida erishilgan natijalar (daromadlar); $Z_t$ -t-chi hisoblash bosqichida xarajatlar	Loyha NPV>0 bo'lsa samarali bo'ladi
Daromadlilik ko'rsatkichi (PI)	$I = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T \frac{R_t - Z_{tek}^t}{(1 + Y_e)^{t-}}$	
Diskontlangan ijobji pul oqimlari nisbati va davr uchun investitsiyalarning diskontlangan qiymati	$IRR = \sum_{t=0}^T (R_t - Z_{tek}^t) \cdot \frac{1}{(1 + Y_e)^{t-}} = \sum_{t=0}^T K_t \frac{1}{(1 + E)^t}$	Loyha DK>1 da amal qiladi
Ichki rentabelliq darajasi(IRR)		IRD moliyaviy bozorlarda $\geq$ o'rtacha daromed
Diskontlash stavkasi, bu erda $NPV=0$ , investor uchun investitsiyalarning minimal qabul qilinadigan darajasi	$\sum_{t=0}^T (R_t - Z_{tek}^t) \cdot \frac{1}{(1 + Y_e)^{t-}} = \sum_{t=0}^T K_t \frac{1}{(1 + E)^t}$	
Loyihaning qaytarilish muddati (qaytish surʼati)		
Kapital qo'yilmalar umumiyyat bilan qoplanadigan loyha boshlangandan boshlab vaqt		

Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi baholanib, ular hudud investitsion faoliyatini boshqarishning pirovard natijalarining iqtisodiy mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi xolos. Ya'ni sodda qilib aytganda loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Investitsiyalarni boshqarish sifatini baholash davlat investitsion siyosati bo'yicha erishilgan retrospektiv natijalarini samaradorligini tahlili qilish va omillarni aniqlash orqali ta'minlanadi. Bunday boshqarish tizimi sifatini baholashda eng avvalo, boshqarishning asosiy funksional elementlari kesimida erishilgan natijalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tabiiy ravishda, boshqarishning klassik funksional elementlari bo'yicha ko'rib o'tiladigan bo'linsa, hududiy investitsion faoliyatni boshqarishning funksional elementlarida quyidagilarni umumlashtirgan holda keltirish mumkin:

Hududiy investitsion faoliyatni rejalashtirish tizimi sifatini baholash.

Operativ boshqaruv elementi sifatida-hududiy investitsiya dasturlarini joriy holatdagi ijrosi tizimiga oid natijalari sifatini baholash.

Hududiy investitsion siyosat strategik maqsadi va vazifalarni realizatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini nazorat va monitoringi tizimi sifatini baholash.

Odatda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini baholash sifat va miqdor (reyting, ball, koeffitsiyentlar) usullarda amalga oshirilib, ushbu usullarning salbiy va ijobji jihatlari yuzasidan hududiy investitsion faoliyatni boshqarish sifati samaradorligini baholashning milliy yondashuvlari amal qiladi.

Har bir hududlar kesimida investitsion faoliyatni boshqarish sifatini baholash hududlarni kompleks rivojlanishda davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Bunda baholashning samarali usullaridan biri sifatida

2 Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



investitsion faoliyatni boshqarish sifatining 12 ta determinantdan iborat bo'lgan reyting tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shunday yondashuvlardan biri sifatida hududiy investitsion faoliyatni boshqarish sifatini baholashning ball tizimini milliy iqtisodiyot uchun samarali deb hisoblash mumkin.

Ushbu 2-jadvalga muvofiq hududlar investitsion faolligini boshqarish sifatini baholash real ko'rsatkichlar va ularning nisbiy chetlanish prinsiplari asosida tizimlashtirilgan. Agar va ko'rsatkichlar o'rtaсидаги nisbiy tafo-vutga asoslangan holda hududiy investitsion faoliyatni boshqarish sifatini baholash mumkin bo'ladi. Hududiy investitsion faoliyatni boshqarish sifatini baholash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$K_{IFBSB}^h / K_{IFBSB}^R \quad (1.8)$$

**2-jadva:** Hududiy investitsion faoliyatni boshqarish sifati samaradorligini ko'rsatkichlari

No	Funktional element	Mezonlari	Ball
Investitsion jarayonlarni rejalashtirishni tashkil qiluvchi ko'rsatkichlari (7 ball)			
1.1	Rejalashtirish	O'rta va uzoq muddatlari istiqbolga hududiy investitsion siyosat strategik dasturlarining mavjudligi	1
1.2		Hududiy investitsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini qonuniy aktlar bilan rasmiylashtirilganligi	1
1.3.		Hududiy investitsiya dasturlari ITI va keng biznes jamoatchiligi tomonidan partisipativ muhokamadan o'tkazilganligi	1
1.4.		Rejalashtirilgan investitsiya dasturlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni oldingi yillarga nisbatan ulushining yuqori o'sish sur'atini ta'minlanganligi	1
1.5.		Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida aholi jon boshiga jalg qilingan xorijiy investitsiyalar indeksining Respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 1 dan yuqorligi	1
1.6.		Qabul qilingan hududiy davlat investitsiya dasturlarida mahalliy byudjetlar hisobidan moliyashtiriladigan "Rivojlanish byudjeti"ning mavjudligi.	1
1.7.		Rejalashtirilgan investitsiya xarajatlarida 50 %idan ortig'i yuqori qo'shilgan qiymatli tijorat loyihamonlari moliyalashtirishga yo'naltirilganligi	1
2. Operativ boshqaruv elementi sifatida-hududiy investitsiya dasturlarini joriy holatdagi ijrosi tizimiga oid natijalari sifatini baholash (3 ball)			
2.1.	Ijro tizimi elementlari	ITI va tadbirdorlardan iborat maslahat-kreativ guruhal tashkil qilinganligi	1
2.2.		Hududiy investitsiya dasturlari manzilli ro'yxatiga kiritilgan loyihamon texnik iqtisodiy asoslari, loyihamon ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi diagnostikasi tizimining umumiyligi uslubiyotining shakllantirilganligi.	1
2.3.		Hududiy investitsiya dasturlari manzilli ro'yxatiga kiritilgan loyihamon texnik iqtisodiy asoslarining tizimlashtirilganligi.	1
Hududiy investitsion siyosat strategik maqsadi va vazifalarni realizatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini nazorat va monitoringi tizimi sifatini baholash (2 ball)			
3.1.	Nazorat va monitoring	Investitsiya loyihamonlari realizatsiya qilishning rasmiy tartiblarining (protsedura) mavjudligi	1
3.2.		Investitsion dasturlar va rivojlanish byudjetini nazorat qiluvchi organlarning shakllantirilganligi	1
Jami integrall ball (KIFBSB)			12

Ushbu ko'rsatkichlarga asoslangan holda hududiy investitsion faoliyatni boshqarish sifatini baholashda quyidagi mezonlar bo'yicha xulosa tizimlashtiriladi.

Agar, =1 bunda hududiy investitsion faoliyat boshqaruv sifati yuqori tizimli tafsifga ega hisoblanadi.

Agar, =0,5 bunda hududiy investitsion faoliyat boshqaruv sifati yuqori tizimli tafsifga ega hisoblanadi.

Agar, =0 bunda hududiy investitsion faoliyat boshqaruv sifati mutlaq tizimli tafsifga ega bo'lmaydi va samarasini hisoblanadi.

Aksariyat holatlarda ushbu ko'rsatkichlar yuqoridagi mutlaq miqdor ko'rsatkichlarida kuzatilmaydi. Umumiy sifatni baholash ko'rsatkichi 0 va 0,5 intervalda bo'lib unda investitsion faoliyat boshqaruv sifati tizimli tafsifga



ega bo'lmaydi. Agar, yuqoridaq ko'satkich 0,5 va 1 intervalida bo'lganda investitsion faoliyat boshqaruvi sifati nisbatan tizimli tafsifga ega bo'ladi.

Hududiy investitsion faoliyatni boshqarish hududiy investitsion siyosatni samarali realizatsiya qilish tizimi funksional elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Hududiy investitsion faoliyatni samarali boshqarish hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish imkoniyatlarini yaratadi.

Hududlar iqtisodiy tizimini modernizatsiya qilish muammosini hal qilish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini muvozanatlashtirish siyosatidan ularning mavjud investitsion potensialiga asoslangan samarali investitsion boshqaruvi tizimiga asoslangan islohotlarning ilg'or tajribasini ommalashtirish tizimiga o'tishni taqozo etadi.

Davlat hududiy va korxonalar miqyosidagi investitsion siyosat maqsadlaridagi farq investitsiyalarni boshqarish tizimida vakolatlari organlar tomonidan hal qilinadigan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Nazariyada maqsadlarning ikki turi ajratiladi:

Shunday qilib, hududiy investitsiya siyosatining asosiy maqsadi kapital bozorida iqtisodiyotning ma'lum hajm va tuzilmadagi investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi kerak bo'lgan taklifni yaratish va qo'llab-quvvatlashdir. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi iqtisodiyotga investitsiya resurslari oqimini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va shu asosda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.

Hududlar kesimida investitsiyalar ishlab chiqarish munosabatlarini intensivlashtirish, aholi daromad daramasini oshirish orqali ular turmush farovonligini ta'minlash orqali hududning milliy va jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Investitsiyalarning hududiy rivojlanishga qo'shgan hissasi ularning hudud iqtisodiyotiga ta'siri bilan belgilanadi.

Ushbu ta'sirni ifodalashning asosiy, eng muhim shakllarini iqtisodchi N. Yu. Sorokina quydagicha tizimlashtiradi:

mintaqaning barqaror, xavfsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi sifatida uning yuqori iqtisodiy mustaqilligiga erishish;

hududiy iqtisodiyot tarmoqlarini, tarmoqlar mutanosib rivojlanishini ta'minlash;

fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini hududiy takror ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish;

hududiy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ularning milliy va jahon miqyosida raqobatbardoshligini ta'minlash;

aholi bandligini ta'minlash, hudud aholisining mehnat va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish uning farovonligi oshishining asosi sifatida belgilanadi.

Fikrimizcha, hududiy investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning konseptual asoslaridan biri sifatida hududlarning muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bilan birlashtirish har bir hududda mavjud investitsion salohiyatga asoslangan holdagi investitsiya siyosati hududlar iqtisodiy imkoniyatlariga asoslangan holdagi samarali iqtisodiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga egadir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, investitsiyalarning real iqtisodiy samaradorligini baholash ko'satkichlari tizimida uch asosiy metodologik yondashuv mavjudligini kuzatish mumkin:

Statik tavsifdagagi ko'satkichlar tizimiga asoslangan usullar (diskontlash tizimini hisobga olmaydigan yondashuvlar):

(a) Investitsiyalarni qoplash muddati (PP);

(b) Foydaning hisob me'yori (ARR);

(v) Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi koeffitsiyenti — investitsiya loyihasidan olingan pul tushumlarining loyihaning butun muddati davomida investitsiyalarga nisbatli orqali aniqlanadi;

(g) Sof pul tushumlari ko'satkichi — investitsiya loyihasi amal qilish muddati davomida tushgan pul oqimlaridan jami investitsiya xarajatlarini chegirib hisoblangan ijobiy nominal qiymatni anglatadi.

Dinamik ko'satkichlar tizimi — loyihaning vaqt o'tishi bilan rivojlanishini aks ettiradi. Bunda hisob-kitob loyihaning amal qilish davrida modellashtirish orqali amalga oshiriladi va tegishli pul oqimlari aniqlanadi. Dinamik ko'satkichlar loyihaning kreditlash, moliyalashtirish va boshqa statik ko'satkichlar bilan ifodalanmaydigan jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu turdagani hisob-kitoblar murakkab bo'lib, odatda maxsus kompyuter das-turlari yordamida bajariladi.

Xarajat ko'satkichlari tizimi — investitsiya ta'sirini pul birliklarida ifodalaydi. U har qanday loyihani moliyalashtirish sxemasi uchun hisoblab chiqiladi va investor uchun maksimal foyda keltiruvchi loyihalarni tanlash imkonini beradi. Xarajat ko'satkichlari investitsiyalarning qaytaruvchanligi, daromad olish potentsiali hamda moliyaviy resurslardan eng maqbul foydalanish imkoniyatlarini baholashda muhim vosita hisoblanadi.

Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha mavjud ko'satkichlar tizimi tahlili asosida qu-



yidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Birinchidan, mavjud mezonlardan hech biri agrar sektorni investitsiyalash bo'yicha qaror qabul qilish uchun yetarli hisoblanmaydi.

Ikkinchidan, ayni paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari va mezonlari tarkibi haqida yagona, aniq fikr mavjud emas.

Uchinchidan, mavjud statik va dinamik baholash usullari investitsiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan ichki tarmoq xususiyatlarini — jumladan, texnologik, kadrlar, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni — yetarli darajada hisobga olmaydi. Bu omillar agrar sektorni barqaror rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi va natijada, investitsion faoliyatning asosiy maqsadlariga erishish muddatlariga ham sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jadal jalb etish uchun mavjud loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda pul oqimlarini diskontlash asosida investitsiyalarning ichki samaradorligini baholovchi tashqi usullar bilan bir qatorda miqdoriy usullardan ham foydalanish zarur.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimining barqaror rivojlanishiga oid yagona ko'rsatkichlar majmuasi mavjud emas. Tarmoqdagagi loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llanilayotgan statik va dinamik usullar esa mavjud salohiyatlari iste'molchilar sharoitida investitsiyalarning real, ichki imkoniyatlardan foydalanish xususiyatlarini e'tiborga olmaydi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ugurchiyev O.B., Ugurchiyeva R.O. (2018) Strategiya diversifikatsii pererabatyvayushchikh predpriyatiy APK kak forma adaptatsii k izmenyayushcheysya kon'yunkture rynka. — Vestnik Akademii znanii, №3 (26).
2. Petrova Ye.A., Kalinina V.V., Shevandrin A.V. (2014) Metodologicheskie problemy i printsipy formirovaniya sistemy otsenki effektivnosti territorial'nogo upravleniya s uchetom strategicheskikh orientirov razvitiya. — Ekonomika regiona, №4, b. 261–271.
3. Bekmurodov A.Sh. va boshq. (2013) Global iqtisodiy inqiroz davrida O'zbekiston moliya sektori: muammolar, natijalar va istiqbollar. Ilmiy monografiya. — Toshkent: Moliya nashriyoti.
4. Mustafakulov Sh.E. (2017) O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.
5. Abduraximova S.A. (2012) Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi. — Toshkent: TDIU.
6. Valiyev B.B. (2021) O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, 08.00.12 – "Mintaqaviy iqtisodiyot". — Toshkent.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)